

**BANK TIZIMIGA RAQAMLI AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI KIRIB KELISHI.****Yuldashev Bilolxon Saminjon o'g'li***Toshkent moliya instituti Bank ishi fakulteti**Navoiy ko'chasi 140 uy.**Email: bilolxony15@gmail.com**+998998109919*

Annotatsiya: *Iqtisodiyotning raqamli modernizatsiyasi hozirgi kunda juda ham ommaviy masalalardan biri hisoblanadi. Jahon iqtisodiy munosabatlarining rivojlanishi sharoitida alohida davlatlar iqtisodiyotining integratsiyasi va to'lov tizimlarining rivojlanishi, xususan, naqdsiz to'lov shakllari, banklarning raqamli xizmatlari turlarini rivojlantirish yo'nalishi kuzatilmoqda. Bank tizimiga elektron axborot texnologiyalarining kirib kelishi esa bu yo'nalishdagi serharajat ishlarni yangicha tashkil etish, takomillashtirishga sharoit yaratdi. Ushbu maqolada, bank tizimiga raqamli axborot texnologiyalarini kirib kelishi haqida fikr va mulohazalar yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *bank, bank tizimi, raqamli bank, elektron axborot, modernizatsiya, transformatsiya, mijoz, bank xizmatlari.*

Moliyaviy sektorda ro'y berayotgan turli xil muammolar va ularning salbiy oqibatlarini yengib o'tish uchun milliy iqtisodiyotda raqamli iqtisodiyotni keng ko'lamda qo'llashga erishish asosiy masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Raqamli bank usullarini qo'llash, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash va mobil tizimlar rivojlanishiga alohida ahamiyat qaratish moliyaviy bozorlar va banklar rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Kredit tashkilotining iqtisodiy xavfsizligi bankning ichki va tashqi salbiy xavflardan himoya qilish uchun qo'llaniladigan tashkiliy, huquqiy, dasturiy-texnik vositalar va usullar jamlanmasi hisoblanadi.

Raqamli bank - banklarni va ularning barcha faoliyatlarini, dasturlarini va funksiyalarini to'liq raqamlashtirishni anglatadi. Bu nafaqat bank xizmatlari va mahsulotlarini raqamlashtirishga, balki mijozlar ko'rgan interfeysga, shuningdek, ichki jarayonlarni avtomatlashtirishga ham tegishli. Raqamli bank, bank va uning mijozlari muloqotining yangi rivojlanish bosqichi bo'lib, u moliyaviy xizmatlar sektoridagi innovatsiyalarni hamda bu sohadagi raqamli, information va texnologik strategiyalarni o'z ichiga qamrab oladi. Bu haqda ilk bora "Microsoft Money" deb nomlangan internet bank texnologiyasi yaratilgan paytda gapirilgan edi. Digital Bank Report doirasida o'tkazilgan ilmiy izlanishlar doirasida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, jahon miqyosidagi 70% moliyaviy muassasalar raqamli bankni o'zlarining strategik portretlaridan biri deb hisoblaganlar. Raqamli bank bo'yicha zamonaviy ishlanmalarni tahlil qilgan holda bu sohadagi eng asosiy yo'nalishlarni ko'rsatishimiz mumkin:

1. Pul mablag'larini legallashtirishning oldini olishga mo'jallangan;



2. jarayonlarni avtomatlashtirish;
3. Virtual xodimlar tomonidan amalga oshirilayotgan amallarning havfsizlik;
4. qoidalarga rioya qilinishini boshqarish;
5. Bankomatlarga o'rnatilgan kompyuterlashgan ko'rish tizimlaridan foydalanish;
6. Mijozning ishonchliligi reytingini avtomatik ravishda aniqlash texnologiyasini tadbiq qilish.

Bank xizmatlari inson raqamli hayotining deyarli barcha sohalarida ham mavjud. Bu sohalarga misol qilib, mobil qurilmalarni, ijtimoiy saytlarni, elektron to'lovlarni va pul o'tkazmalarini, internet-narsalarni, pul depozitlarini va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Dunyo bo'ylab 26% banklar foydalanadigan yondoshuv raqamli texnologiyalarni to'liq raqamli transformatsiya sifatida emas, balki alohida loyiha sifatida tadbiq qilishni ko'zda tutadi - bu brinchi yondoshuvdir.

Xulosa qilib aytganda, bular natijasida tashkiliy tuzilmaning yuqori darajadagi moslashuvchanligiga erishiladi hamda yangi faoliyat yo'nalishlarini testlashtirish imkoniyati yaratiladi. Raqamli transformatsiyaga bo'lgan uchinchi yondoshuv raqamli texnologiyalarni tashkilotning asosiy boyligi deb hisoblashga asoslangan. Bu usul boshqa yondoshuvlar bilan birgalikda ishlatilishi mumkin, ammo u bankdagi barcha ichki va tashqi jarayonlarning to'liq raqamli transformatsiyasi strategiyasi asosida amalga oshiriladi. Hozigri vaqtda ushbu usul vositasida raqamli transformatsiyani amalga oshirish 32% banklar tomonidan amalga oshiriladi. Hozirgi davrda raqamli transformatsiya jarayoni banklarning raqobatbardoshliligini saqlab turish uchun kerakli bo'lgan muhim tadbir hisoblanadi va bugungi kunda bank operatsiyalarning uchdan bir qismi raqamli texnologiyalar vositasida amalga oshirilayapti.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kulikov A. G. pul, kredit, banklar: darslik. 2020. 656b.
2. Lavrushin O. I. Pul. Kredit. Banklar. Darslik. 2019.
3. Abbosov A. M., Mamedov Z. F., Aliyev S. A. banklarni raqamlashtirish sektorlar: yangi muammolar va istiqbollar. 2022.